

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Ostonaqulova, S.X.Zakirova	
Sariqo'rg'on tarixiy yodgorlik tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati.....	117
S.X.Zakirova, R.Z.Rajavaliyeva, G.I.Ikromaliyeva	
Shifobaxsh malina o'simligini madaniy o'g'itlar bilan oziqlantirish.....	121
M.X.Diyorova, S.N.Xoliqova	
G'uzor massividagi qo'riq och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoiy xossalari.....	126
M.T.Isag'aliyev, R.B.Matholiqov, N.Sh.Xakimjonova, D.K.Tolibova	
Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibining o'zgarishi	132
V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov	
Yozyovon tumanining tabiiy geografik shart-sharoitlari.....	136
R.A.Iminchayev, M.A.Yuldasheva, J.G' Ma'rufjonov, G.M.Mamirjonova, G.G'.Yusupjonova	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarning mineralogik tarkibi hamda mineral o'g'itlarning ahamiyati, sinflarga bo'linishi	140
R.A.Iminchayev, T.A.Fayziyeva, M.X.Boboyeva, D.S.Ro'zaliyeva, R.M.Raximova	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlardagi Kovul o'simligining morfologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va tuproqning agrokimyoiy xossalariiga ta'siri	144
N.Sh.Bazarova, X.B.Mustafayev	
Tuproqda kimyoiy birikmalarning to'planishi va insonlarda kelib chiqayotgan kasalliklar.....	147
N.A.Ergasheva	
Farg'ona va Qo'qon shaharlari tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari.....	150
N.I.Teshaboyev, O.A.Mirodilova, A.A.Bozorboyeva	
Mikrobiologik o'g'itlarning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri	157
M.A.Yusupova	
Sug'orish ta'sirida qumliklarning o'zgarishi	160
O.K.Usmonov, M.A.O'lmasova	
Almashlab ekish, tuproq unumdorligini oshirishni hamda sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni garovidir	164
Q.A.Darvonov, A.A.Saminov	
Suyuq azotli o'g'itlar bilan bargidan oziqlantirishni kuzgi bug'doyning rivojlanish fazalariga ta'siri	167
S.A.Maxramxujayev, A.N.Meliqo'ziyev, O.D.Saidova	
Yangi o'zlashtirilgan eroziyalangan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar va gips differensiatsiyasi	170
R.M.Abdurahmonov, M.I.Mahmudova, Q.M.Shermatova, G.H.O'tanova, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova	
Kolmatajlangan tuproqlarda pista yetishtirishning afzalliklari	174
R.A.Iminchayev, M.A.Sattorova, J.G 'Yigitaliyev, J.G'.Ma'rufjonov, M.X.Boboyeva	
Janubiy Farg'onada shakllangan och tusli bo'z tuproqlarni agrokimyoiy xossalarni o'zgarishida azotli o'g'itlarning o'mi hamda ulami ishlab chiqarish	178
S.M.Nazarova, Z.R.Avliyoqulov, Y.G'.Ismoilova	
Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlari tahlili.....	182
A.T.Turdaliyev, G'.G'.Mamajonov, Y.H.Muhammadov	
Sug'oriladigan tuproqlarda lantanoidlar va radioaktiv elementlar geokimyoisi	
M.Z.Mamadaliyev	
Kuzgi bug'doyning barg sathi maydoniga sholi poxoli, mahalliy hamda mineral o'g'itlarning ta'siri	192
G'.T.Parpiyev, N.A.Qilichova	
Konimex tabiiy-geografik rayoni tuproqlarining mikro va makroagregatligi	195

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

V.Y.Isaqov, G'A.Akbarov	
Farg'ona vodiysi qumli hududlarining umumiyl tafsifi.....	200
M.A.Газиев, З.А.Мукимов	
Роль органических веществ в стимулирование деятельность почвенных микроорганизмов.....	204



UO'K: 631.4

G'UZOR MASSIVIDAGI QO'RIQ OCH TUSLI BO'Z TUPROQLARINING AGROKIMYOVIY XOS SALARI

АГРОХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЦЕЛИННЫХ СВЕТЛЫХ СЕРОЗЕМОВ ГУЗОРСКОГО МАССИВА

AGROCHEMICAL PROPERTIES OF VIRGIN LIGHT SERIOZEMS OF THE GUZOR RANGE

Diyorova Muhabbat Xurramovna¹ 

¹Qarshi davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d.

Xoliqova Surayyo Narzullayevna² 

²Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada qo'riq och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoiy xossalari uning ona jinsiga bog'liq holda rivojlanishi ta'kidlangan. Qolaversa, tuproq tarqalgan iqlim sharoitlarga bog'liq ravishda o'simliklar qoplami uning yuza qatlamlar agrokimyoiy xossalariiga bir muncha ta'sir etishi yoritilgan.

Shu bilan birga, qo'riq och tusli bo'z tuproqlardan olinigan 1; 2; 3 va 4-kesmalarning A chim osti qatlamlaridan pastki qatlamlarigacha tuproqning agrokimyoiy xossalari guminus miqdori 0,163-0,326%, umumiy azot 0,014-0,028%, umumiy fosfor 0,021-0,038%, umumiy kaliy 1,327-1,687%, xarakatchan fosfor (P_2O_5) 2,3-3,5 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 90,7-158,2 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,63-7,68 ni tashkil etganligi aniqlangan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что развитие агрохимических свойств целинных светлых сероземов зависит от их материнских пород. Кроме того, поясняется, что в зависимости от климатических условий и растительный покров, в которых находится почва в намного влияет на агрохимические свойства ее поверхностных горизонтов.

В то же время агрохимические свойства почвы из 1; 2; 3 и 4 разрезах под дерновыми горизонтами нижнего слоя почвы составляют содержание гумуса 0,163-0,326%, общего азота 0,014-0,028%, общего фосфора 0,021-0,038%, общего калия 1,327-1,687%, подвижный фосфор (P_2O_5) 2,3-3,5 мг/кг, обменный калий (K_2O) 90,7-158,2 мг/кг, показатель pH составляет 7,63-7,68.

Abstract

In this article we will consider the agrochemical properties of coarse-grained loose soils depending on their natural origin. In addition, depending on the climatic conditions in which the soil is located, Agrochemical properties of soil from the lower layers of subsoil 1; 2; 3 and 4 of the lower layers of the lower soil layer constitute a humus content of 0.163-0.326%, total nitrogen 0.014-0.028%, vegetation cover affects the agrochemical properties of its surface layers for some time, total phosphorus 0.021-0.038%, total potassium 1.327-1.687%, residual phosphorus (P_2O_5) 2.3-3.5 mg/kg, variable potassium (K_2O) 90.7-158.2 mg/kg, pH value was 7.63-7.68.

Kalit so'zlar: Qo'riq, guminus, agrokimyo, abiotik, biotik, cho'l, iqlim, GTL, ShKM, kaliy, fosfor, pH ko'rsatkichi, degradatsiya.

Ключевые слова: Охрана, гумус, агрохимия, абиотик, биотик, пустыня, климат, GTL, ШКМ, калий, фосфор, показатель pH, деградация.

Key words: Conservation, humus, agrochemistry, abiotic, biotics, desert, climate, GTL, ShKM, potassium, phosphorus, pH, degradation.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda tuproq degradatsiyasi turlari va ularni kelib chiqishi sabablarini tizimlashtirish tuproq xossalariiga ta'sirini aniqlar tuproq xossalari yaxshilash, tuproq unumdorligini va o'simliklar hosildorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'rta Osiyo

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

davlatlarida foydalanimadigan yaroqli bo'lgan yerlarning 77,0 % o'simlik qoplamining buzilishi, 3,6% maydon Orol dengizining qurishi natijasida tuproq sho'rланishi, 1,5% maydon deflyatsiya, 2,4% texnogen cho'llanishga uchragan [1, 7].

Yer yuzasining 20-33% ni cho'llardan tashkil topgan bo'lib, atmosfera (bug'lanish) va o'simliklar (transpiratsiya) tomonidan suvgaga bo'lgan talab yog'ingarchilikdan ancha ko'p bo'lgan joylarda hosil bo'ladi. Bular Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika yoki Markaziy Osiyo kabi mintaqalar hisoblanadi. Ammo global iqlim o'zgarishi natijasida cho'llanish jarayoni yildan yilga ortib borishi kuzatilmogda. Cho'llanishning jiddiy alomatlaridan biri shuki, tuproqning degradatsiyaga uchrashidir. «BMT ning 2022-yilgi milliy hisobotida shuni ta'kidlab o'tishgani, hozirgi kunda ernen 15,5 foizi degradatsiyaga uchragan, bu ko'p yillar davomida 4 foizga oshgan» [1, 2]. Shuningdek, mamlakatimizda cho'l hududlarining iqlimi va tuproq xossalari xozirgi holatini aniqlash orqali tuproq degradatsiyasini oldini olish borasida muhim tadbirlar ishlab chiqish talab etiladi.

«Mamlakatda yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish, hududlarda cho'llanish va qurg'oqchilikning oldini olish, bioxilmassilikni asrab qolish, tuproq unumdarligini saqlash va oshirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, ushbu yo'nalishdagi ilg'or ilmiy ishlamalar va innovatsiyalardan keng foydalanish asosida mintaqalarni barqaror rivojlanishiga erishish» bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan. Shu bois, qo'riq tuproqlarni hozirgi holatini aniqlash asosida tuproqlarning xossalari yaxshilash hamda aholi iste'moli uchun oziq-ovqat manbasini ishlab chiqarish bo'yicha iqtisodiy jihatdan samarali chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [6, 7].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati G'uzor massividagi tarqalgan qo'riq och tusli bo'z tuproqlari va shu tuproq qatlamlaridagi o'simliklar qoplami xizmat qilgan.

Tadqiqotning predmeti G'uzor massividagi GTL zavodining g'arbiy va janubiy qutblari va SHKM ning sharqiy-shimoliy va shimoliy qutblarida tarqalgan och tusli bo'z tuproqlar xossalari aniqlash va tuproq qoplamida o'sib rivojlanadigan o'simliklarni oziqlantirish orqali samarali foydalanish hisoblanadi.

Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitlarida olib borildi. Dala tadqiqotlari sobiq O'zPITI ning «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» bo'yicha; tuproq namunalari tahlillari Ye.V.Arinishkinaning «Руководство по химическому анализу почв» va sobiq O'zPITI ning o'simlik biomassasi aniqlash «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» uslublaridan foydalilanigan [3, 4].

NATIJA VA MUHOKAMA

Qo'riq och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari uning ona jinsiga bog'liq holda rivojlanadi. Qolavesa, tuproq tarqalgan iqlim sharoitlarga bog'liq ravishda o'simliklar qoplami uning yuza qatlamlar agrokimyoviy xossalariiga bir muncha ta'sir etadi. Qo'riq tuproqlarning agrokimyoviy xossalari sug'oriladigan maydonlarning agrokimyoviy xossalardan farq qilib, mahsulot ishlab chiqarish uchun o'g'it qo'llash, sug'orish tadbirlarini olib borib hosil olinmaydi. Shuningdek, qo'riq tuproqlarning agrokimyoviy xossalari antropogen omillar ta'siri deyarli kuzatilmaydi. Ammo, abiotik va biotik omillar ta'sirida agrokimyoviy xossalari ko'p yillar mobaynida o'zgarib boradi. Albatda bunda tuproq tarqalgan tabiy iqlim sharoitiga bog'liq [5].

Tadqiqot olib borgan xududda tarqalgan qo'riq och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari umumiyligi qabul qilingan usullarda aniqlandi. Tahlil natjalarga ko'ra, GTL zavodining g'arbiy tomonida tarqalgan qo'ruq och tusli bo'z tuproqlardan olingan 1; 2; 3 va 4-kesmalar bo'yicha A_{chim} (0-14 sm) qatlamlarida gumus miqdori 1,075-1,096%, umumiyligi azot 0,098-0,103%, umumiyligi fosfor 0,108-0,113%, umumiyligi kaliy 1,840-1,843%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 13,9-14,4 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 267,4-270,5 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,22-7,25, $A_{chim osti}$ (15-30 sm) qatlamlarida esa gumus miqdori 0,632-0,640%, umumiyligi azot 0,062-0,063%, umumiyligi fosfor 0,071-0,074%, umumiyligi kaliy 1,920-1,931%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 7,4-7,6 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 209,2-212,4 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,44-7,46 oralig'ida bo'lishi aniqlandi.

Qo'ruq och tusli bo'z tuproqlardan olingan 1; 2; 3 va 4-kesmalarning $A_{chim osti}$ qatlamlaridan pastki qatlamlariga tuproqning agrokimyoviy xossalari gumus miqdori 0,163-0,326%, umumiyligi azot 0,014-0,028%, umumiyligi fosfor 0,021-0,038%, umumiyligi kaliy 1,327-1,687%, harakatchan fosfor

2-SHOBA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

(P₂O₅) 2,3-3,5 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K₂O) 90,7-158,2 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,63-7,68 ni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

G'uzor massivi tuproqlarining agrokimyoziy tarkibi

Kesma, №	Qatlam, sm	Gumus, %	Umumiyl, %			Xarakatchan, mg/kg		pH muhit
			N	P	K	P ₂ O ₅	K ₂ O	
1	0-13	1,079	0,099	0,109	1,841	14,2	268,0	7,25
	14-28	0,634	0,063	0,072	1,923	7,6	209,4	7,44
	29-87	0,324	0,027	0,035	1,682	3,5	152,7	7,63
	88-142	0,181	0,015	0,022	1,371	2,9	107,8	7,67
	143-210	0,164	0,014	0,021	1,330	2,3	90,7	-
2	0-13	1,075	0,098	0,108	1,840	13,9	270,5	7,22
	14-27	0,632	0,062	0,071	1,920	7,4	212,4	7,46
	28-79	0,322	0,027	0,034	1,680	3,3	158,2	7,64
	80-136	0,184	0,015	0,022	1,372	2,8	109,5	7,68
	137-198	0,163	0,014	0,021	1,331	2,7	92,0	-
3	0-14	1,084	0,101	0,111	1,842	14,1	269,3	7,24
	15-26	0,636	0,063	0,072	1,925	7,5	210,9	7,45
	27-84	0,324	0,027	0,036	1,683	3,4	155,4	7,64
	85-132	0,182	0,015	0,022	1,370	2,6	108,7	7,68
	133-218	0,164	0,014	0,021	1,329	2,3	91,3	-
4	0-13	1,096	0,103	0,113	1,843	14,4	267,4	7,23
	14-30	0,640	0,063	0,074	1,931	7,6	209,2	7,44
	31-85	0,326	0,028	0,038	1,687	3,5	150,3	7,65
	86-151	0,183	0,015	0,022	1,369	2,6	107,1	7,66
	152-196	0,166	0,014	0,021	1,327	2,3	90,9	-
5	0-14	1,098	0,103	0,114	1,844	14,0	268,7	7,23
	15-28	0,641	0,063	0,074	1,933	7,5	209,6	7,42
	29-92	0,324	0,028	0,039	1,689	3,4	155,1	7,64
	93-146	0,183	0,015	0,022	1,368	2,9	108,6	7,65
	147-203	0,165	0,014	0,021	1,326	2,3	90,5	-
6	0-13	1,101	0,105	0,114	1,845	14,2	272,3	7,22
	14-28	0,643	0,063	0,075	1,936	7,6	205,1	7,44
	29-85	0,324	0,028	0,040	1,690	3,4	149,2	7,63
	86-132	0,183	0,015	0,022	1,367	2,7	105,2	7,65
	133-219	0,165	0,013	0,021	1,325	2,2	89,0	-
7	0-15	1,105	0,106	0,115	1,845	14,6	270,4	7,21

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

	16-30	0,643	0,066	0,078	1,866	7,6	200,7	7,44
	31-93	0,328	0,028	0,040	1,690	3,4	143,2	7,66
	94-138	0,182	0,017	0,019	1,367	2,6	101,9	7,64
	139-227	0,164	0,013	0,017	1,325	2,1	87,5	-
8	0-14	1,107	0,106	0,116	1,846	14,8	266,0	7,22
	15-28	0,643	0,066	0,075	1,939	7,7	208,7	7,33
	29-87	0,326	0,028	0,041	1,692	3,6	145,4	7,65
	88-142	0,183	0,016	0,022	1,366	2,5	105,7	7,66
	143-214	0,167	0,019	0,021	1,324	2,4	91,4	-
9	0-18	1,106	0,107	0,117	1,851	15,1	266,0	7,19
	19-31	0,645	0,065	0,077	1,889	7,8	208,7	7,42
	32-88	0,325	0,028	0,041	1,692	3,6	145,4	7,62
	89-123	0,183	0,016	0,022	1,366	2,6	105,7	7,66
	124-182	0,165	0,017	0,020	1,324	2,5	91,4	-
10	0-18	1,107	0,109	0,118	1,857	15,0	268,7	7,18
	19-30	0,646	0,064	0,077	1,876	7,7	206,6	7,42
	31-82	0,329	0,028	0,042	1,693	3,5	143,6	7,64
	83-140	0,182	0,016	0,023	1,366	2,6	104,4	7,63
	141-196	0,163	0,013	0,021	1,323	2,4	90,5	-
11	0-18	1,107	0,108	0,118	1,853	15,2	260,8	7,20
	19-28	0,638	0,065	0,078	1,840	7,4	204,5	7,40
	29-91	0,328	0,031	0,041	1,692	3,3	141,9	7,63
	92-126	0,184	0,016	0,022	1,366	2,6	103,1	7,65
	127-193	0,164	0,016	0,019	1,324	2,3	89,7	-
12	0-18	1,112	0,109	0,118	1,859	15,0	263,4	7,19
	19-31	0,646	0,064	0,077	1,876	7,7	206,6	7,39
	32-84	0,324	0,028	0,042	1,693	3,5	143,6	7,65
	85-138	0,183	0,015	0,024	1,366	2,6	104,4	7,66
	139-215	0,163	0,013	0,021	1,323	2,4	90,5	-
13	0-19	1,126	0,110	0,125	1,871	15,7	264,7	7,17
	20-30	0,647	0,064	0,078	1,814	7,8	208,3	7,39
	30-78	0,324	0,028	0,043	1,692	3,7	140,5	7,62
	79-135	0,186	0,015	0,026	1,357	3,1	104,2	7,65
	136-208	0,163	0,014	0,023	1,328	2,2	91,8	-
14	0-19	1,132	0,114	0,123	1,873	15,6	257,8	7,16
	20-33	0,647	0,064	0,080	1,838	7,5	210,3	7,36

2-SHOBA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

	34-82	0,326	0,030	0,043	1,681	3,7	135,7	7,63
	83-127	0,186	0,015	0,024	1,361	2,7	101,6	7,66
	128-213	0,162	0,014	0,021	1,350	2,4	91,6	-
15	0-19	1,137	0,113	0,121	1,869	15,7	261,3	7,17
	20-32	0,647	0,065	0,081	1,816	7,7	212,5	7,38
	33-87	0,327	0,028	0,043	1,694	3,7	138,1	7,64
	88-142	0,185	0,016	0,024	1,365	2,7	102,9	7,64
	143-237	0,161	0,013	0,020	1,321	2,3	94,3	-

GTL zavodining janubiy tomonida tarqalgan qo'riq och tusli bo'z tuproqlardan olingan 5; 6; 7 va 8-kesmalar bo'yicha A_{chim} (0-14 sm) qatlamlarida gumus miqdori 1,098-1,107%, umumiyl azot 0,103-0,106%, umumiyl fosfor 0,114-0,116%, umumiyl kaliy 1,844-1,846%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 14,0-14,8 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 266,0-272,3 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,21-7,23, $A_{chim osti}$ (15-30 sm) qatlamlarida esa gumus miqdori 0,641-0,643%, umumiyl azot 0,063-0,066%, umumiyl fosfor 0,074-0,078%, umumiyl kaliy 1,866-1,939%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 7,5-7,7 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 200,7-209,6 mg/kg, pH ko'rsatgichi 7,33-7,44 hamda $A_{chim osti}$ qatlamlaridan pastki (31-227 sm) qatlamlarigacha gumus miqdori 0,164-0,328%, umumiyl azot 0,013-0,028%, umumiyl fosfor 0,017-0,040%, umumiyl kaliy 1,324-1,692%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 2,1-3,6 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 87,5-155,1 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,63-7,66 oralig'ida bo'lishi aniqlangan (1-jadval).

SHKM ning sharqiy va sharqiy-shimoliy hududlaridagi qo'riq yerlar olingan 9; 10 va 11-kesmalar bo'yicha A_{chim} (0-18 sm) qatlamlarida gumus miqdori 1,106-1,107%, umumiyl azot 0,107-0,109%, umumiyl fosfor 0,117-0,118%, umumiyl kaliy 1,851-1,857%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 15,0-15,2 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 260,8-268,7 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,18-7,20 va $A_{chim osti}$ (19-31 sm) qatlamlarida esa, gumus miqdori 0,638-0,646%, umumiyl azot 0,064-0,065%, umumiyl fosfor 0,077-0,078%, umumiyl kaliy 1,840-1,889%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 7,4-7,8 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 204,5-208,7 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,40-7,42 hamda $A_{chim osti}$ qatlamlaridan pastki (32-196 sm) qatlamlarigacha gumus miqdori 0,163-0,329%, umumiyl azot 0,013-0,031%, umumiyl fosfor 0,019-0,042%, umumiyl kaliy 1,323-1,693%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 2,3-3,6 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 89,7-145,4 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,62-7,66 oralig'ida bo'lgan.

XULOSA

Tadqiqot olib borilgan SHKM ning shimoliy hududlaridagi qo'riq yerlar olingan 12; 13; 14 va 15-kesmalar bo'yicha A_{chim} (0-19 sm) qatlamlarida gumus miqdori 1,112-1,137%, umumiyl azot 0,109-0,114%, umumiyl fosfor 0,118-0,125%, umumiyl kaliy 1,859-1,873%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 15,0-15,7 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 257,8-264,7 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,16-7,19 va $A_{chim osti}$ (20-33 sm) qatlamlarida esa, gumus miqdori 0,646-0,647%, umumiyl azot 0,064-0,065%, umumiyl fosfor 0,077-0,081%, umumiyl kaliy 1,814-1,876%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 7,5-7,8 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 206,6-212,5 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,36-7,39 hamda $A_{chim osti}$ qatlamlaridan pastki (34-237 см) qatlamlarigacha gumus miqdori 0,161-0,327%, umumiyl azot 0,013-0,030%, umumiyl fosfor 0,020-0,043%, umumiyl kaliy 1,321-1,694%, harakatchan fosfor (P_2O_5) 2,2-3,7 mg/kg, almashinuvchan kaliy (K_2O) 90,5-143,6 mg/kg, pH ko'rsatkichi 7,62-7,66 oralig'ida bo'lishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari» to'g'risidagi Qarori. <http://Lex.uz>
- <https://www.weforum.org/agenda/2024/04/what-is-desertification-land-degradation/>
- Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии. – Т. 1977. – С. 8-12.
- Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. – Т. Мехнат, 1963. – 228 с.

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

5. Diyorova M.X. Qashqadaryo vohasi tuproqlarining unumdorligi va ekologiyasi "Monografiya" Fan bulog'i nashriyoti, 2023y. 26-30 b.
6. Quziyev J.M. Qashqadaryo havzasi bo'z tuproqlar mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarining agrokimyoiy holatini yaxshilash.: Aftoref. dis. q.x.f.d. – Toshkent.TAITI. 2017.- 18 b.
7. Qurbanov M.M. Qashqadaryo konus yoyilmalaridagi degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish yo'llari Avtoref. diss... b.f.f doktori. – Toshkent, 2022. – 33 b.